

Toshkent shahar statistika boshqarmasi



2018 yilning yanvar – iyun oylarida QURILISH ISHLARI

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida Toshkent shahrida jami mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish surati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 110,9 %ni tashkil etdi.

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik pudrat tashkilotlari tomonidan 1 097,1 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 27,3 % hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 111,7 %ni

Raqamlar:

Qurilish ishlari hajmi -
4019,2 mlrd.so'm

Yirik pudrat
tashkilotlari ulushi -
27,3 %

Kichik tashkilotlar va
mikrofirmalar ulushi -
53,6 %

Norasmiy sektor
ulushi -
19,1 %

Kichik korxonalar va tashkilotlar, mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 53,6 %i yoki 2 154,0 mlrd.so'm to'g'ri keldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 116,9 %ni tashkil etdi, norasmiy sektor hissasiga esa 19,1 % yoki 768,1 mlrd.so'm to'g'ri keldi hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 97,9 %ni tashkil etdi.

Yirik pudrat tashkilotlari

- hajmi -
1 097,1 mlrd.so'm
- o'sish surati -
111,7 %


Kichik tashkilotlar va mikrofirmalar

- hajmi -
2 154,0 mlrd.so'm
- o'sish surati
116,9 %

Norasmiy sektor

- hajmi -
768,1 mlrd.so'm
- o'sish surati -
97,9 %

Yanvar - iyun oylarida faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari





Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 60,9 %ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davridagi

ko'rsatkichga nisbatan 1,9 % punktga ko'paydi.

Fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 19,1 %ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,9 % punktga kamaydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa 20,0 % to'g'ri keldi.


Yanvar-iyun oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi



Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi ulushi 20,4 %ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 2,7 %

punktga ko'paydi. Bunda kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi 48,2 % (17,1 % punktga ko'payish) va norasmiy sektorning ulushi 31,4 %ni (19,7 % punktga kamayish) tashkil etdi.

2018 yil yanvar-iyunida faoliyat turlari bo'yicha tarkibi (jamiga nisbatan %da)




Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish ishlari bo'yicha yirik pudrat tashkilotlarining ulushi 63,4 %ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 9,4 % punktga kamaydi. Shuningdek, kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi 36,6 %ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 9,4 % punktga ko'paydi.

ishlari tarkibida yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,5 % punktga kamaydi va 13,8 %ni tashkil etdi. Qolgan 86,2 % kichik tashkilotlar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,5 % punktga ko'paydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish


Yirik pudrat tashkilotlari yetakchilik qilmoqda. Ushbu tomonidan bajarilgan qurilish hududda bajarilgan qurilish ishlari hajmining hudular boyicha ishlarining 76,1 %i yirik pudrat tarkibida Mirobod tumani tashkilotlari tomonidan bajarilgan



Yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng kam ulushi Uchtepa tumanida kuzatildi 23,1 %. Bu hududdagi qurilish

ishlarining asosiy qismi kichik korxonalar hissasiga to'g'ri keladi – hududdagi jami qurilish ishlarining 76,6 %i.

Tumanlarda qurilish ishlarining o'rish suratlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan %da)



Qurilish ishlarining hududlar kesimida eng yuqori o'rish surati Shayxontoxur tumanida kuzatildi.

Katta hajmda amalga oshirilayotgan qurilish ishlariga quyidagilarni keltirish mumkin:

- "Tashkent City" majmuasining qurilishi ;
- Shaharda ko'priklar va temir yo'l halqasining qurilishi,


- Yangi biznes aeroportining qurilishi;

- Chilonzor tumanida - milliy bog'ni rekonstruksiya qilish;

- Sergeli tumani ko'p qavatli arzonlashtirilgan uy-joylarni qurilishi;

-Chilonzor tumanida "Humo" sport saroyining qurilishi.

Tumanlar kesimida qurilish ishlari (mlrd.so`m)



Toshkent shahar statistika boshqarmasi
Investitsiya va qurilish statistikasi
bo'limi

Nashr uchun mas'ul:
Aloqa telefoni:

Sh.Yarashov
(0371) 230-88-18